

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PSIXOLOGIYA  
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY  
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**NUSRATOVA MEXRINISO BAXSHILLOYEVNA**

**BO‘LAJAK PSIXOLOGLARDA ALTRUISTIK XULQ MOTIVLARINI  
RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
psychological Sciences**

**Nusratova Mexriniso Baxshilloevna**

Bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning ijtimoiy-  
psixologik xususiyatlari ..... 3

**Нусратова Мехринисо Бахшилловна**

Социально-психологические особенности развития мотивов  
альтруистического поведения у будущих психологов ..... 25

**Nusratova Mexriniso Baxshilloevna**

Socio-psychological features of the development of motives of altruistic  
behavior among future psychologists ..... 51

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 56

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PSIXOLOGIYA  
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY  
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**NUSRATOVA MEXRINISO BAXSHILLOYEVNA**

**BO‘LAJAK PSIXOLOGLARDA ALTRUISTIK XULQ MOTIVLARINI  
RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/P599 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Atabayeva Nargis Batirovna**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Jabborov Xazrat Xuseynovich**  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Abdusamatov Xasanboy Usmonjon o'g'li**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Phd.03/30.12.2019.Psi.72.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «16» dekabr kuni soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14; faks: (+0365) 221-27-57; e-mail: [buxdu.rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu.rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. A1557 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «01» dekabr da tarqatildi.

(2023-yil «01» dekabr da 14 raqamli reestr bayonnomasi.)



**A.M. Jabborov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi  
o'rinbosari, psixologiya fanlari doktori,  
professor

**Sh.Sh. Rustamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

**R.A. Abdurasulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda shaxsning altruistik xulq-atvori har doim ham uning atrofidagi insonlarga yaxshilik tilashini ko'rsatmasligi, o'z shaxsiy manfaatiga ustunlik berish bilan bog'liq xulqdagi o'zgarishlarni ortishi, altruizm jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lishi va shaxs axloqiy rivojlanishi kabi masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. «Altruistik jazo» modeli tahlilini ta'minlovchi empirik tadqiqot natijalari Nature jurnali chop etilib kelinmoqda. 2004 yilda «Evolution and Human Behavior» jurnalida shveysariyalik olimlar Ernst Fer va Urs Fishbaxer «Altruistik jazo» (ingliz. Third-party punishment - TPP)<sup>1</sup> deb nomlangan shaxs xatti-harakatlarining maxsus modeli mavjudligini e'lon qilishgan. Altruistik jazo yoki «Uchinchi tomon» modelining mohiyati axloqiy ong va uning motivlari, psixologik himoya mexanizmi shakllantirish, shaxs qadriyatlar tizimida axloqiy tushunchalarni singdirishni ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda altruistik xulq motivlarini tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahonning ilmiy tadqiqot markazlarida va oliy ta'lim muassasalarida altruizm motivlarining affektiv, kognitiv, emotiv, konativ komponentlarining xulq-atvoriga ta'sirini aniqlash, shaxslararo munosabatlarning turli ko'rinishlarida altruistik yo'nalganligi, ijtimoiy-psixologik omillarning shaxs axloqiy rivojlanishiga ta'sirini yoritib berish bilan bog'liq yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlardagi Garvard va Yel universitetlaridagi bir guruh olimlar katta yoshdagi shaxslarning ongida altruistik jazo modeli mavjudligini yana bir bor empirik tarzda tasdiqlashga erishishgan. Altruistik xulqning motivlari va kognitiv determinantlarini ijtimoiy-psixologik ta'sir mexanizmlari tomonidan anglanilgan darajasini aniqlash, shaxslararo munosabatlardagi egoistik ustanovkalarini o'zgartirish masalalari bilan bog'liq bo'lgan omillarni empirik jihatdan tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda «Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi»<sup>2</sup> tamoyiliga ko'ra, Yangi O'zbekiston yoshlarini ijod, ilm, ta'lim-tarbiyada peshqadam qilib tarbiyalashning konseptual g'oyalari bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratilib, «yoshlarni Vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash»<sup>3</sup> ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada shaxsning axloqiy sifatlarini tarbiyalash, altruistik xulq-avtorning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni jihatlarini aniqlash, altruistik kechinmalar namoyon bo'lishini tadqiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

<sup>1</sup> [https://www.gazeta.ru/science/2016/02/25\\_a\\_8090675.html](https://www.gazeta.ru/science/2016/02/25_a_8090675.html)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'qituvchi va murabbiylar kuni»ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020 yil 30 sentyabr. - <https://uza.uz/uz/posts/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-ituv-30-09-2020>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni O'RQ-406. - <https://lex.uz/docs/-3026246>

to'g'risida» Farmoni, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-son «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Altruizm va unga yondosh bo'lgan sifatlar, ularning psixologik xususiyatlari, milliy tarbiya hamda ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirida axloqiy tasavvurlarning shakllanishiga oid masalalar o'zbek psixolog olimlardan N.B.Atabayeva, B.M.Botirov, M.D.Galdiyeva, D.Z.Jo'raqulova, Z.T.Nishanova, N.S.Safayev, G.M.Shakirova va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan K.Abulxanova-Slavskaya, A.Bikov, Y.Ermakova, V.Kim, O.Masakova, I.Mangutova, A.Moiseeva, D.Podolskiy, Y.Subbotskiy va boshqalar altruistik munosabatlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik asoslari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlaridan altruizm muammosini G.N.Avhach, M.Burke-Beltrand, O.Comte, L.Kolberg, A.Smith, J.Piaget, P.Ekman va boshqalar tadqiq etib, altruizm fenomenining muhim jihatlarini ko'rsatib berishgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236 «Oila psixologiyasi fanidan multimediyah mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishda altruizm yo'nalgan obyektga nisbatan qadriyatlarining differensial namoyon bo'lishi xususiyatlari tadqiq etish;

bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarining rivojlanishining ijtimoiy intellektga bog'liqlik jihatlari tahlil qilish;

bo'lajak psixologlarda shaxs differensial xususiyatlarining altruistik xulq motivlarining namoyon bo'lishiga ta'sirini dalillash;

bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixokorreksion amaliy-uslubiy ta'minotni shakllantirish.

**Tadqiqotning obyektini** sifatida bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tanlangan bo'lib, tadqiqotga Toshkent davlat pedagogika universitetining 96 nafar, Buxoro davlat universitetining 112 nafar, Qarshi davlat universitetining 54 nafar talabalari, jami 1-2 bosqich talabalardan 262 nafar respondentlar jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda kuzatish, «Altruistik xulq yo'nalganligi darajasini aniqlashning ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi» (N.B. Atabayeva, M.B. Nusratova), S.K. Nartova-Bochaverning «Altruizm motivatsiyasi» so'rovnomasi, Dj. Gilfordning «Ijtimoiy intellektni aniqlash metodikasi», T. Lirining «Interpersonal tashxis so'rovnomasi», D.V. Lyusinning «Emotsional intellekt» so'rovnomasi, R.B. Kettellning «16-faktorli shaxs so'rovnomasi» metodikalaridan foydalanildi va olingan natijalarni statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan: Pirson r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, Styudentning t-mezonlari orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishda altruizm yo'nalgan obyektga nisbatan «beg'arazlik» va «ijtimoiy almashinuv» tamoyilari muvofiq qadriyatlarining differensial namoyon bo'lishi tufayli ijtimoiy - etnik xususiyatlar ustuvor xarakterga ega ekanligi asoslangan;

bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarining rivojlanishi xulq-atvordagi verbal va noverbal mazmundagi harakatlarni ajrata olish, ekspressiv va vaziyatli axborotlar oqimidagi umumiy xususiyatlarni anglash, munosabatlarni tushunish ko'nikmalarini kasbiy faoliyatda ustuvor namoyon bo'lishi tufayli shaxsda ijtimoiy intellekt shakllanishiga identiv ekanligi dalillangan;

bo'lajak psixologlarda shaxs differensial xususiyatlarining altruistik xulq motivlarining namoyon bo'lishiga ta'siri natijasida «psixolog-mijoz» munosabatlari tizimida o'zaro bir-birini idrok qilish, tushunish, axborotlarni ratsional uzatish ko'nikmalarining dinamik rivojlanishi tufayli kasbiy faoliyat bilan bog'liq intellektual, emotsional va kommunikativ xususiyatlar ustuvor xarakterga ega ekanligi asoslangan;

bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishda shaxslararo munosabatlarda kongruentlik va konformizm ustanovkalarini ijtimoiy mas'uliyat, empatiya hisi bilan bog'liq holda shakllantirish muhimligiga ko'ra shaxsning o'z-o'zini «altruistik Men»ni baholash darajasiga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhimligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish asosida uni rivojlantirishning etnik jihatlari yoritib berilgan;

talabalarda altruistik xulq motivlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma ishlab chiqilgan va natijalarning faktorli differensiyatsiyasi orqali altruizmning etnik asoslarini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

shaxsda altruizmni rivojlanishining yosh inqirozlari hamda ijtimoiy omillarga bog'liq jihatlari aks ettirilgan ma'lumotlar bo'yicha «Rivojlanish psixologiyasi» nomli darslik va «Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi» nomli o'quv qo'llanma yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy jihatdan asoslangan, rivojlanish psixologiyasi yo'nalishida amaliyotchi mutaxassislar tomonidan keng qo'llanuvchi metodik vositalar, matematik statistikaning turli darajadagi (birlamchi va yuqori darajalardagi) metodlari kompleks qo'llangani; respondentlar tanlanma to'plamining hajmi psixologik tadqiqotlarda tavsiya etilgan talablar asosida ishlab chiqilganligi; ilmiy-nazariy tahlil, natijalar sharhini ishonchli manbalarga asoslanganligi; asosiy holatlar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak psixologlar, ya'ni talabalarda altruistik xulq motivlarini rivojlanishining ijtimoiy-psixologik va integral omillari, ichki mexanizmlari haqidagi ilmiy tasavvurlarni boyitishi, shuningdek, tadqiqot materiallari talaba kasbiy shakllanishi hamda axloqiy-motivatsion sohasida «mijoz-psixolog» munosabatlarini belgilovchi motivlar to'g'risidagi ilmiy bilimlarni hamda «Ijtimoiy psixologiya», «Etnopsixologiya», «Psixologik maslahat», «Psixokorreksiya» kabi fanlarni ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati altruizm, altruistik xulq shakllanishi va rivojlanishining psixologik qonuniyatlari haqidagi bilimlardan yoshlarning axloqiy tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish hamda altruistik xulqning yosh va jins tafovutlariga oid xususiyatlari izohlangan ma'lumotlardan bo'lajak psixologlarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirishda uslubiy jihatdan foydalanishda, altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning amaliy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari psixolog kadrlar amaliy tayyorgarligini oshirishga yordam berishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga doir olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida:

bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishda altruizm yo'nalgan ob'yektga nisbatan «beg'arazlik» va «ijtimoiy almashinuv» tamoyili muvofiq qadriyatlarining differensial namoyon bo'lishi tufayli ijtimoiy - etnik xususiyatlar ustuvor xarakterga ega ekanligi asoslanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-41-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM-41a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishda altruizm

yoʻnalgan obyektga nisbatan qadriyatlarining differensial namoyon boʻlishi xususiyatlari tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

boʻlajak psixologlarda altruistik xulq motivlarining rivojlanishi xulq-atvordagi verbal va noverbal mazmundagi harakatlarni ajrata olish, ekspressiv va vaziyatli axborotlar oqimidagi umumiy xususiyatlarni anglash, munosabatlarni tushunish koʻnikmasini kasbiy faoliyatda ustuvor namoyon boʻlishi tufayli shaxsda ijtimoiy intellekt shakllanishiga identiv ekanligi dalillanganligiga oid maʼlumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-41-sonli buyrugʻi bilan «Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM-41a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada boʻlajak psixologlarda altruistik xulq motivlarining rivojlanishining ijtimoiy intellektga bogʻliqlik jihatlari tahlil qilish imkoniyati yaratilgan;

boʻlajak psixologlarda shaxs differensial xususiyatlarining altruistik xulq motivlarining namoyon boʻlishiga taʼsiri natijasida «psixolog-mijoz» munosabatlari tizimida oʻzaro bir-birini idrok qilish, tushunish, axborotlarni ratsional uzatish koʻnikmasining dinamik rivojlanishi tufayli kasbiy faoliyat bilan bogʻliq intellektual, emotsional va kommunikativ xususiyatlar ustuvor xarakterga ega ekanligi asoslanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-41-sonli buyrugʻi bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM-41a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada boʻlajak psixologlarda shaxs differensial xususiyatlarining altruistik xulq motivlarining namoyon boʻlishiga taʼsirini dalillash imkoniyati yaratilgan;

boʻlajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishda shaxslararo munosabatlarda kongruentlik va konformizm ustanovkalarini ijtimoiy masʼuliyat, empatiya hissi bilan bogʻliq holda shakllantirish muhimligiga koʻra shaxsning oʻzi-oʻzini «altruistik Men»ni baholash darajasiga korreksion-adaptiv taʼsir etish muhimligi isbotlanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-41-sonli buyrugʻi bilan «Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM-41a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada boʻlajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixokorreksion amaliy-uslubiy taʼminotni shakllantirish usuli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, metodlar, obyekt va predmet ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tatbiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumot keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Psixologiyada altruistik xulq haqidagi qarashlarning ilmiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida uzoq va yaqin xorijlik hamda mamlakatimiz olimlarining mavzuga oid nazariy qarashlari umumlashtirilgan. Shuningdek, psixologiyaning turli sohalarida altruistik xulqni tushunish, uni shakllantirish turlari, mexanizmlarining o'ziga xos psixologik xususiyatlari hamda mazkur muammoni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning ilmiy-nazariy tahlili amalga oshirilgan. Shu bilan birga altruizm fenomeni bo'yicha Sharq olimlarining nazariy qarashlari ham keltirilgan. Altruizm hodisasi Sharq allomalari asarlarida unga yondosh bo'lgan saxovat, futuvvat, himmatlilik, muruvvat, beminnat yordam berish kabi sifatlar talqini, o'zbek psixologlari izlanishlarida esa altruistik xulqning namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos talqini bayon qilingan.

Dissertatsiyani «**Bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida sinaluvchilarda altruistik xulq motivlarining ifodalanishini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik metodikalarning psixometrik sifatleri, altruistik xulq determinantlarining metodologik asoslari tahlil qilib berilgan. Bundan tashqari mazkur bobda altruistik xulqning namoyon bo'lishini o'ziga xos jihatlari empirik ma'lumotlar asosida sharhlab berilgan.


Dissertatsion tadqiqotda biz dastlab bo'lajak psixologlarda kimga, qanday va nima uchun yordam berishi bilan bog'liq fikrlarini aniqlashga qaratilgan savollardan iborat ijtimoiy-psixologik so'rovnoma o'tkazildi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, tadqiqotimizda sinaluvchilar guruhlarida maxsus ijtimoiy-psixologik mualliflik so'rovnomasi yordamida so'rov o'tkazildi. Ushbu so'rovnoma ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismida bo'lajak psixologlarga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlar, ikkinchi qismida esa ularning altruizm haqidagi qarashlari va tajribasiga xos masalalar savol qilib qo'yildi.

So'rovnomaning ikkinchi qismi bo'lajak psixologlarning kimga, qanday va nima uchun yordam berishi bilan bog'liq fikrlarini aniqlashga qaratilgan savollardan iborat edi. So'rov natijasida to'plangan miqdoriy ko'rsatkichlarning birlamchi qayta ishlanishi natijalari chastotali tahlil materiallarida keltirildi (1-rasmga qarang).


Altruistik xulq «yoʻnalgan obyekt»larning oʻziga xos xususiyatlari



Altruistik xulqni namoyon boʻlish jihatlari



Altruistik xulq motivlarining ichki determinantlari



**1-rasm. Altruistik xulq namoyon boʻlishining ijtimoiy - psixologik xususiyatlari (n=262).**

Olingan natijalarga koʻra, «altruistik xulq yoʻnalgan obyekt»lar shartli ravishda 5-guruhga birlashtirildi. Oʻzbek millatiga mansub talabalar auditoriyasida esa «altruistik xulq yoʻnalgan obyekt» sifatida eng katta koʻrsatkich ota-onalar va tengdoshlar guruhi koʻrsatilgan. Talabalik davriga kelib shaxs oʻz hayotida bilishga oid, ijtimoiy, kasbiy qiyinchiliklarni boshidan kechira boshlaydi. Bu qiyinchiliklarning ichida ijtimoiy qiyinchiliklar shaxsning shakllanishiga katta taʼsir etadi. Talabalarning tengdoshlari bilan munosabatlari tizimidagi altruizm koʻproq

ijtimoiy identifikatsiya mexanizmi ta'sirida kechadi. Bunda talaba tengdoshini o'zining o'rniga qo'yib ko'rishga intilishi orqali, unga yordam berishim kerak deb hisoblaydi. Talabaning tengdoshlariga nisbatan altruistik xulqni amalga oshirishiga undaydigan omillarning ichida ijtimoiy almashinuv motivi yetakchilik qiladi. Talabalarning natijalarida kichik bolalar, pedagoglar va notanish insonlar auditoriyasiga yordam ko'rsatish tendensiyasi deyarli bir xil qiymatga ega bo'lgan. Buning asosiy sabablari, eng avvalo, talabalarning kasbiy shakllanish nuqtai nazaridan altruizmning beg'arazlik indeksini ortganligi (notanish insonlarga qaratilgan altruizm) va altruistik motivlarning kasbiy muhim sifatlar sirasiga singib borilayotganligidan dalolat beradi. Qolaversa, respondentlarimizning kontingenti pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotganligini hisobga olsak, altruizm motivlarini shaxsning kasbiy muhim sifatleri negizida shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Rus millatiga mansub bo'lajak psixologlarda esa «altruistik xulq yo'nalgan obyekt» sifatida ota-onalar va tengdoshlar auditoriyasi deyarli bir xil natijaga ega bo'lgan. Mazkur holat talabalarning ota-onalari bilan munosabatlari tizimida erkin fikrlashlari, o'zlarini mustaqilligi, oiladagi referentometrik ta'sir do'stona muhitga asoslanganligi bilan ifodalansa, tengdoshlariga nisbatan «tengdoshdan-tengdoshga» tamoyiliga muvofiq o'zaro munosabatlar tizimini barpo etilganligini bildiradi. Mazkur ikki guruh vakillariga nisbatan altruistik xulqning yo'nalganligini dominantligi o'zaro fikrlashdagi hamda munosabatlardagi simbiotik yondashuvning kuchli ekanligini anglatadi. Rus millatiga mansub talabalarimizda kichik bolalar va notanish insonlar guruhiga nisbatan altruistik xulqni namoyon bo'lishi ham deyarli bir xil natija bergan. Mazkur holat bo'lajak psixologlarning «inson-inson» tipidagi kasbiy faoliyat doirasida ijtimoiy faolligini ortib borishi hamda «Beg'araz ijtimoiy adolatlilik» tamoyiliga muvofiq kasbiy «Ego» xususiyatlarning xulqdagi realizatsiyasini identiv rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Rus millatiga mansub bo'lajak psixologlarning pedagoglarga nisbatan altruistik xulqni ifodalashlari bir oz past natija bergan. Mazkur holatni biz quyidagicha izohlaymiz: rus millatiga mansub talaba pedagoglarni ilmiy ustoz, yo'l ko'rsatuvchi, har qanday holatda qo'llab-quvvatlovchi shaxs, mutaxassis deb biladi. Talaba nigohida pedagog shaxsining ideallashtirilishi pedagoglarni «yordam berish obyekti» emas, balki «yordam olish subyekti» deb baholashga sharoit yaratadi.

Bo'lajak psixologlardagi altruistik xulqni namoyon bo'lishida o'ziga xos etnik differentsiatsiya mavjud. Xususan, o'zbek va rus millatiga mansub respondentlarimizning har ikkisi ham «odatda yordamga muhtoj insonning muammosidan kelib chiqib, beg'araz yordam berish kerak», deb hisoblagan bo'lsalar ham rus millati vakillari bu mezonga ko'proq ustuvorlik berganlar. Buning asosiy sabablaridan biri rus millati vakillarida realistik tafakkur va ijtimoiy dadillikning yuqoriligidir. Chunki, odatda shaxsning muammosidan kelib chiqib beg'araz yordam berishda insonga ijtimoiy dadillik, spontan ijtimoiy tafakkur va vaziyatni boshqara olish qobiliyati zarur bo'ladi. O'zbek millati vakillarida mazkur ko'rsatkich oiladagi qadriyatlar, tarbiyaga mos ravishda namoyon bo'lmoqda.

Insonlarga yordam berish deganda asosan moddiy yordamni ustun biluvchilar ham uchraydi. Mazkur mezon bo'yicha o'zbek respondentlarimiz 16% ni, rus respondentlarimiz 8%ni tashkil etgan. Bu holat shaxsdagi moddiylikni birlamchi deb

biluvchi respondentlarda «axloqiy burch», «empatiyaviy yo‘nalganlik», «ijtimoiy persepsiya» darajasining sust rivojlanganligini hamda bo‘lajak psixologlarning kasbiy sifatleri yetarli darajada shakllanmaganligini anglatadi. O‘zbek millatiga mansub respondentlarimizda ikkinchi mezon sifatida «insonlarni ko‘proq ma‘nan qo‘llab-quvvatlash lozim», degan fikr berishgan.

Mazkur mezon rus millatiga mansub respondentlarda to‘rtinchi o‘rinda turibdi. O‘zbek millatining mental xususiyatiga ko‘ra, farzand «g‘amxo‘r, dardkash» inson obrazida tarbiyalanadi, ayniqsa qiz bolalar. Rus millati vakillari esa farzand tarbiyasida «mard, dadil, mustaqil fikr egasi» obraziga katta e‘tibor qaratadilar. Shu boisdan, o‘zbek millati vakillarida yordamga muhtoj kishilarni ma‘nan qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq empatiyaviy yo‘nalganlik darajasi ustunroq chiqqan.

So‘rovnomaning navbatdagi mezonni «insonlarga emotsional yordam kerak»ligi haqidagi fikrlardir. Mazkur mezon o‘zbek va rus millatiga mansub talabalarda uchinchi o‘rinda tanlangan. Ushbu holat har ikki millat vakili insonlarga yordam berishda altruistik xulq motivlari emotsional determinantlarga asoslanishini ta’kidlaganligini anglatadi. Xususan, emotsional yordamda altruistik xulq empatiya, emotsional intellekt, kayfiyatning ta’sirida faollashuvi nazarda tutiladi. Milliy mental xususiyat bilan bog‘lasak o‘zbeklarda empatiya, ruslarda emotsional intellekt shaxsni altruistik xulqini yuzaga keltiradi deyish mumkin.

«Insonlarga asosan muammoli holatini sabablarini tushuntirib berishni o‘zi yetarli»ligini ifodalovchi altruistik xulqning kognitiv jihati rus millatiga mansub respondentlarda yuqori natijani bergan. Bu holat mazkur sinaluvchilarimizni har qanday holatda «aql bilan ish yuritish» tamoyiliga amal qilishlarini anglatadi. O‘zbek millatiga mansub respondentlarda mazkur komponent bo‘yicha natijalarning pastligi ularda avvalgi mezon bo‘yicha har qanday vaziyatda dastlab «emotsional qo‘llab-quvvatlash», keyin esa «aql bilan maslahat berishni» afzal bilishlarini anglatadi.

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, har ikki millat vakillarining altruistik xulq motivlarini ichki determinantlari deyarli bir xil reprezentatsiyalangan. Mazkur holat millat turlicha bo‘lgani bilan yashash muhiti, sharoitining bir xilligi har ikki millatning umuminsoniy qadriyatlarga bo‘ysunishidan dalolat beradi. Natijalar orasida «beg‘arazlik», «o‘zaro almashinuv» tamoyillari o‘zining ustuvorligi bilan ajralib turibdi. Ushbu holat ham respondentlarimizdagi axloqiy tushunchalar tizimi hamda refleksiv empatiyaviy yo‘nalganlikning yuqori darajada shakllanganligi, altruistik xulq motivlarining axloqiy motivlarga asoslanishi, bo‘lajak psixologlarda kasbiy refleksiyaning rivojlanganligidan dalolat beradi. Kam miqdordagi respondentlarimizda (rus millati vakillarining 18%i, o‘zbeklarning 14%i) «ijtimoiy» tamoyilning yuqori chiqishi, ular tomonidan amalga oshiriladigan altruistik xulq «niqoblangan egoizm» bo‘lib, respondentlarimiz o‘zlarining jamiyatdagi «Men»ini mavqeyini oshirish uchun «aqli ravishda altruistik harakatlarni» amalga oshiradilar. Demak, ularning har qanday altruistik xulqlarini negizida o‘z ijtimoiy mavqelarini tasdiqlash bilan bog‘liq «egoistik ustanovkalar» yotadi. Mazkur holat bo‘lajak psixologlarda kasbiy refleksiyaning yetarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini namoyon bo‘lishida o‘ziga xos ijtimoiy - psixologik, etnik

xususiyatlarning differentsiatsiyasi mavjudligi ilmiy izlanishlarimiz asosida o'z tasdig'ini topdi.

Bo'lajak psixologlarda altruistik xulqni rivojlanganlik darajasi va uning gender farqlarini aniqlab olish uchun S.K.Nartova-Bochaverning «Altruizm motivatsiyasi» so'rovnomasini o'tkazib oldik. Olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadval ko'rinishida aks ettirildi (1-jadval).

**1-jadval.**

**Talabalarda altruistik xulq namoyon bo'lishining gender va etnik xususiyatlari (n=262)**

Sinaluvchilar	Altruistik xulq motivlari		t – statistik farq ko'rsatkichi
	O'zbek (n =157)	Rus (n =105)	
O'g'il bolalar (n=98)	51,2	49,1	-2,10
Qiz bolalar (n=164)	52,5	48,7	-2,56*

Izoh: \* p≤0,05; \*\* p≤0,01; \*\*\* p≤0,001.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, bo'lajak psixologlar, ya'ni talabalarda altruistik xulq namoyon bo'lishida o'ziga xos gender tafovutlar ham mavjud. Ularga ko'ra qizlarda yigitlarga nisbatan yuqori darajada altruistik xulq shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, oilada azal-azaldan qiz bolalarda atrofdegilar uchun qayg'urish sifatlarini va ularda «mehribon ona, g'amxo'r umr yo'ldoshi» timsolini tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, o'g'il bolalarda esa mardlik, qat'iyatlilik sifatlarini shakllantirishga urg'u berilgan.

Qiz bolalar tabiatan biologik nasl haqida g'amxo'rlik qilishga mas'uldirlar. Qiz bolalar tug'ilgandayoq unda onalik va farzandlariga g'amxo'rlik qilish instinkti mavjud bo'ladi. Ayollar xonadonning hamshirasi, bosh oshpazi, tarbiyachisi va dalda beruvchi dardkashi, erkaklar oila posboni degan gender stereotiplar mavjud. Shu boisdan ham yigit – qizlarimiz mana shu xulq modellarini optimal tarzda o'zlashtirish va «katta Men»ning tan olinishi uchun mazkur xulq modellarini amalda qo'llashga urinadilar. Qolaversa, natijalarda o'zbek millatiga mansub talaba qizlarda altruistik motivlarning yuqoriligi etnik xususiyatlarimiz bilan ham bog'liq. O'zbek millatida qizlarni mehribon, muloyim, dardkash, o'zgalarni tushunadigan, futuvvatli qilib tarbiyalanadi. Aynan mana shu shaxs sifatlarini negizida esa etnik xususiyatlarimizga xos axloqiy burch hissi yotadi.

Axloqiy burch esa milliy emotsional xususiyatlarimiz bilan integrativ holatda altruistik xulqni motivlarini rivojlanishi sabab bo'ladi. Shu boisdan, o'zbek millatiga mansub qizlarda altruistik xulq motivlari ko'proq hissiy reaksiyalarga boy bo'lsa, rus millatiga mansub qizlarda ijtimoiy xatti-harakatlarni, o'zaro munosabatlarni almashinishga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi kuchli bo'ladi.

O'g'il bolalarda esa har ikki millat vakilida altruistik xulq motivlarini namoyon bo'lishida differensial farqlar kuzatilmagan. Demak, rus va o'zbek millatiga mansub o'g'il bolalarda altruistik xulq motivlari va ularning kontekstida rivojlanadigan shaxs xususiyatlarining shakllanishiga tarbiya jarayonida katta e'tibor qaratiladi.

Bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishda altruizm yo'nalgan obyektga nisbatan «beg'arazlik» va «ijtimoiy almashinuv» tamoyili

muvofig qadriyatlarlarning differensial namoyon bo'lishi tufayli ijtimoiy - etnik xususiyatlar ustuvor xarakterga ega ekanligi asoslangan.

Biz dissertatsion tadqiqotimiz doirasida navbatdagi bosqichda S.K.Nartova-Bochaverning «Altruizm motivatsiyasi» so'rovnomasidan olingan natijalarni J.Gilfordning «Sotsial intellektni tadqiq etish» va E.D.Lyusinning «Emotsional intellekt» metodikalarining ko'rsatkichlari bilan korrelyatsion tahlilini amalga oshirdik. Empirik ma'lumotlarni tahlil qilishda bir voqelikning ikki qutbini tahlili qilishni o'zi yetarli deb hisobladik, shu boisdan faqatgina altruistik xulqning yuqori va past darajalari bo'yicha korrelyatsion natijalarni keltirdik (2-jadval).

## 2-jadval.

### Bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini namoyon bo'lishining ijtimoiy intellektning etnopsixologik jihatlari (n=262)

Ko'rsatkichlar	Millati	Muloqot ishtirokchisining hissiy holati, fikri va niyatlarini tushunish	Noverbal muloqot harakatlarini tushunish	Verbal muloqot harakatlarini tushunish	Shaxslararo harakat maqsadini tushunish
Yuqori darajadagi altruistik xulq	O'zbek (n=157)	<b>0,67*</b>	0,31	0,21	<b>0,50*</b>
	Rus (n=105)	0,23	<b>0,61*</b>	0,21	<b>0,62*</b>
Past darajadagi altruistik xulq	O'zbek (n=157)	0,25	<b>-0,63*</b>	0,11	0,14
	Rus (n=105)	0,250	-0,630	<b>0,77*</b>	0,14

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ ; \*\*\*  $p \leq 0,001$ .

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, bo'lajak psixologlarimizdagi altruistik xulq motivlari ijtimoiy intellekt komponentlari bilan o'ziga xos tarzda korrelyatsiya bergan. Xususan, yuqori darajadagi altruistik xulq motivlari o'zbek talabalarida muloqot ishtirokchisining hissiy holati, fikri va niyatlarini tushunish ( $r=0,67$ ;  $p \leq 0,05$ ), shaxslararo harakat maqsadini tushunish ( $r=0,50$ ;  $p \leq 0,05$ ), rus talabalarida noverbal muloqot harakatlarini tushunish ( $r=0,61$ ;  $p \leq 0,05$ ), shaxslararo harakat maqsadini tushunish ( $r=0,62$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan ijobiy ahamiyatli korrelyatsiya bergan bo'lsa, past darajadagi altruistik xulq motivlari o'zbek talabalarida noverbal muloqot harakatlarini tushunish ( $r=0,63$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan teskari, rus talabalarida verbal muloqot harakatlarini tushunish ( $r=0,77$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan ijobiy ahamiyatli korrelyatsiya bergan.

O'zbek talabalarining yuqori darajada altruistik xulq motivlari namoyon bo'layotganlarida muloqot ishtirokchisining hissiy holati, fikri va niyatlarini tushunish holati ijtimoiy intellektning xulq-atvorni anglash bilan bog'liq integral omillaridan biridir. Shaxs ijtimoiy intellektning taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi mazkur mezon xulq tizimini anglash, ya'ni muloqot jarayonida bo'lajak psixologlar mijozning hissiy holatiga fikrlarini ijtimoiy identifikatsiyalashi, reflektiv jarayonlarni faollashtirish orqali muammoli vaziyatlardagi shaxs axloqining ichki mexanizmlarini tahlili qilish va uni verbalizatsiyalash imkoniyatini yaratishi uchun

zarurdir. Bo'lajak psixologlarda «o'zgalalar hissiy holatini adekvat baholash» ijtimoiy persepsiyaning (refleksiya, identifikatsiya, stereotipizatsiya, empatiya) yuqori darajada taraqqiy etishi altruistik xulq motivlarini shakllanishiga olib kelishi mumkin. Chunki, bo'lajak psixologda muloqotda suhbatdoshini tushunish hissiy holatni anglash, to'g'ri baholashdan boshlanadi.

Agar shaxsdagi altruistik xulq motivlarining shakllanish genezisi nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, biror-bir vaziyatda kimgadir yordam ko'rsatish uchun dastlab, altruistik hislar yuzaga keladi. Altruistik hislar bevosita muloqotda suhbatdoshni, yoki mijozni psixoemotsionl holatini autent baholash natijasida yuzaga keladi. Altruistik hislar ijtimoiy persepsiv mexanizmlar ta'sirida altruistik motivlarning yuzaga chiqishiga olib keladi. Dissertatsion tadqiqot natijalarida e'tibor qaratish lozim bo'lgan yana bir muhim jihat bor, o'zbek millatining «emotsional xususiyatlari» orasida empatiya ustuvor xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham mazkur mezon o'zbek talabalarining natijalarida ahamiyatli korrelyatsiya bergan. Ijtimoiy intellektning integral omillaridan yana biri shaxslararo harakat maqsadini tushunishdir. Mazkur holat bo'lajak psixologlarning shaxslararo munosabatlar dinamikasini anglay olishlaridan dalolat beradi. Bunda talaba «psixolog-mijoz» tizimidagi murakkab vaziyatlarni tahlil qiladi, mijozning «mantig'ini» tushunadi, voqealar ketma-ketligi prognozlaydi va eng asosiysi noverbal reaksiyalarning mohiyatini anglaydi. Mazkur xususiyatlar psixolog faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi, shu bilan birga mijozga psixologik yordam ko'rsatishda uning «niqoblangan muammolari»ni o'qish, tushunish imkonini beradi hamda ijtimoiy kasbiy mas'uliyat hisi bo'lajak psixologlarda altruistik motivlarni axloqiy burch kontekstida namoyon bo'lishiga olib keladi.

Rus millatiga mansub talabalarda ham yuqori darajadagi altruistik xulq motivlari ijtimoiy intellektning integral omillari bilan o'ziga xos korrelyatsiya bergan. Xususan, rus talabalarining noverbal muloqot harakatlarini tushunish darajasi xulq elementlarini anglash bilan bog'liq bo'lib, bo'lajak psixologlarni mijoz shaxsiga stereotiplardan tashqarida munosabat qila olish, «psixolog-mijoz» munosabatlari doirasida o'zgalarning kechinmalariga nisbatan ta'sirchanlik, konsultativ muloqotdagi ekspressiv rang-baranglik, do'stona munosabatning kuchliligi, hissiy barqarorlik, vijdonlilik, muloqotdagi qaytar aloqaga mas'uliyatlilik, o'zini qabul qilish va adekvat baho, «Men» siymosini irodaviy kontekstda namoyon qilish, refleksiya, kommunikativ faoliyatda kongruentlik, empatiya sifatlarni yuqori darajada shakllanganligidan dalolat beradi. Aynan yuqorida sanab o'tilgan shaxs sifatlari esa xorij va milliy muhitda olib borilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlardan ma'lumki, shaxsdagi altruistik xulqning subyektiv determinantlari hisoblanadi. Rus millatiga mansub bo'lajak psixologlarimizda ham shaxslararo munosabatlarda muloqot harakatlari natijasini ko'ra olish, tahlil qilish, vaziyatni oqilona boshqarish ko'nikmalari ustun ekan.

Mazkur sifatlar psixolog faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, altruistik xulq motivlarini qadriyatlar tizimida ratsional altruizm xususiyati ko'rinishida realizatsiyalanishiga olib keladi.

Dissertatsion tadqiqotimiz doirasida belgilagan vazifalarimizdan yana biri bo'lajak psixologlarda shaxs differensial xususiyatlarining altruistik xulq motivlarining namoyon bo'lishiga ta'sirini aniqlashdir. Chunki, altruistik xulq

motivlarini namoyon bo'lishi, rivojlanishi o'ziga xos genezisga ega bo'lib, u shaxs qadriyatlar tizimida differensial xususiyat sifatida reprezentatsiyalanadi. Shu maqsadda respondentlarimizning shaxs xususiyatlari va altruistik xulq motivlari orasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun P.B.Kettellning «16-faktorli shaxs so'rovnomasi»dan foydalandik. Respondentlarimizdan olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan (3-jadval).

**3-jadval.**

**Shaxs xususiyatlari va altruistik xulq motivlari orasidagi bog'liqlikning ijtimoiy - psixologik jihatlari (n=262)**

Shkalalar	O'zbek (n=157)		Rus (n=105)	
	yuqori darajadagi altruistik xulq	past darajadagi altruistik xulq	yuqori darajadagi altruistik xulq	past darajadagi altruistik xulq
A (muloqotchanlik - odamovilik)	0,71*	-0,14	0,88*	-0,21
B (intellekt)	0,34	0,27	0,12	0,29
S (hissiy turg'unlik - hissiy beqarorlik)	0,23	-0,20	0,57*	-0,11
E (itoatkorlik - dominantlik)	-0,21	0,57*	-0,21	0,57*
F (bosiq, mulohazali - ta'sirchanlik)	0,42*	0,30	0,24	0,29
G (his-tuyg'ularga beriluvchanlik - yuqori normativ xulq)	0,53*	-0,34	0,18	0,25
H (tortinchoqlik, jur'atsiz - botirlik)	0,54*	-0,10	-0,24	0,63*
I (shafqatsizlik - yumshoq ko'ngillilik)	-0,28	0,75*	-0,31	0,55*
L (ishonuvchanlik - shubhalanuvchanlik)	-0,14	0,34	-0,14	0,34
M (ishbilarmonlik - rivojlangan xayolparastlik)	-0,47*	0,14	-0,32	0,52*
N (tabiiy oddiylik - diplomatlik)	0,20	-0,18	0,19	0,22
O (o'ziga ishonuvchan - aybdorlik hissiga moyillik)	0,49*	-0,25	-0,38	0,52
Q1 (rigidlik - o'zgaruvchanlik)	0,25	0,31	0,26	0,13
Q2 (konformlilik - mustaqillik)	0,19	0,24	0,77*	-0,21
Q3 (impulsivlik - istaklarni nazorat qilishga moyillik)	-0,24	0,48*	-0,20	0,63*
Q4 (kuchsizlik - frustratsiya)	-0,15	0,52*	-0,33	0,28

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ ; \*\*\*  $p \leq 0,001$ .

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, o'zbek millatiga mansub bo'lajak psixologlarda yuqori altruistik xulq motivlari muloqotchanlik ( $r=0,71$ ;  $p \leq 0,05$ ), tortinchoqlik ( $r=0,54$ ;  $p \leq 0,05$ ), altruistik xulq motivlarining past darajada namoyon bo'lishi dominantlik ( $r=0,57$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan ijobiy korrelyatsiya ega ekanligi aniqlangan. Rus millatiga mansub bo'lajak psixologlarda yuqori altruistik xulq motivlari muloqotchanlik ( $r=0,88$ ;  $p \leq 0,05$ ), mustaqillik ( $r=0,77$ ;  $p \leq 0,05$ ), altruistik

xulq motivlarining past darajada namoyon bo'lishi dominantlik ( $r=0,57$ ;  $p\leq 0,05$ ), tortinchoqlik ( $r=0,63$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy korrelyatsiya ega ekanligi kuzatilgan. «A» – omil o'zbek millatiga mansub respondentlarda o'rtacha darajada namoyon bo'lmoqda. Mazkur holat bo'lajak psixologlar shaxslararo munosabatlarda samimiy muhitni qo'llab-quvvatlashlari, biroq, o'zlari yangi muloqot obyektlarini izlash, muloqotdagi tashabbuskorlikni sustroq ekanligi anglatadi. Bunday insonlar muloqotdagi faollikni faqatgina biror muammoni hal qilish, yordam berish yoki umumiy qiziqishlariga mos mavzular borasida fikr bildirish zarurati tug'ilganda o'z qo'llariga oladilar. Aynan mana shu jihat o'zbek talabalarining altruistik xulq motivlarini yuqori darajasi bilan korrelyatsiya bergan desak bo'ladi. Olingan natijalarimizning qiziq tomoni shundaki, tortinchoqlik sifati ham o'zbek talabalarida altruistik xulq motivlari bilan korrelyatsiya bergan. Buning asosiy sabablaridan biri, bo'lajak psixologlar individual ish faoliyatida kasbiy qadriyatlar kontekstida psixologik xizmatni, psixologni dialogni tashkil etish orqali hissiy komfortni tuyadilar. Boshqacha aytganda, aksariyat hollarda tortinchoq talabalarda empatiyaviy identifikatsiyaning kuchliligi kuzatiladi. Bu esa altruistik xulq motivlarini faollashtiradi. Rus millati vakillarida o'zbeklardan farqli ravishda tortinchoqlik past darajadagi altruizm, ya'ni egoizm bilan bog'liq deb ko'rsatilgan. Bunda agar talabada egoautoindentifikatsiya kechayotgan bo'lsa, u atrofdagilarga yordam berishdan ko'ra, o'z muammolari va olamiga to'liq o'ralashib qoladi. Shu boisdan, atrofdagilarga yordam berishga oshiqmaydi.

Rus millatiga mansub talabalarda esa muloqotchanlikning yuqori darajasi kuzatilgan. Rus millati vakillarida ijtimoiy integratsiyaning kuchliligi muloqotga bo'lgan ehtiyojni oshiradi va altruistik motivlarni faollashtirishda o'ziga xos sotsial faktor bo'lib xizmat qiladi. Rus millati vakillarida o'zbek talabalardan farqli ravishda mustaqillik, ya'ni liderlik sifatlarini rivojlanganligi ham kuzatilgan. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni va shaxsiy kuzatuvlarimizning ko'rsatishicha, chinakam altruist haqiqiy lider bo'ladi. Chunki, u tavakkal qilishni bilsagina kimgadir, yoki mijozga tegishli psixologik yordamni ko'rsata oladi.

Dissertatsion tadqiqot natijalarida rus va o'zbek millati vakillari bo'lgan bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarining past darajasi dominantlik bilan ijobiy korrelyatsiya bergan. Dominantlik liderlikdan farqli ravishda ko'proq ustuvorlikka intilish, odamlarni boshqarishga intilish bilan tavsiflanadi va egoistik ustanovkalariga asoslanadi. Shu boisdan ham shaxslararo munosabatlarda dominantlikka intilish odamlarni manipulyatsiya qilishga olib keladi. Natijada shaxs insonlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalana boshlaydi. Shu nuqtai nazardan olganda manipulyativ holatlar shaxsni past darajadagi altruizm, ya'ni egoizmning chegarasiga moyillikni kuchaytiradi.

Bizning tahlillarimizda keltiriladigan navbatdagi subshkalalar intellektual sifatlardan bog'liqdir. O'zbek millatiga mansub bo'lajak psixologlarning yuqori darajadagi altruistik xulq motivlari rivojlangan xayolparastlik ( $r=-0,47$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan teskari, rus millatiga mansub talabalarining past darajadagi altruistik xulq motivlari rivojlangan xayolparastlik ( $r=0,52$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligi kuzatilgan. Mazkur holat har ikki millat vakilida ham muammoli vaziyatga yo'nalganlikning kuchliligi bilan uning yechimini topishdagi ijodiy, nostandart, kreativ yondashuvning ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Talabalardagi

tafakkur egiluvchanligi va operativligi altruistik motivlarni differensial faollashuviga olib keladi.

Navbatdagi bosqichda emotsional xususiyatlar va ularning altruistik xulq motivlari bilan bog'liq jihatlarini tahlil qilamiz. O'zbek millatiga mansub bo'lajak psixologlarning yuqori darajadagi altruistik xulq motivlari mulohazalilik ( $r=0,42$ ;  $p\leq 0,05$ ), tortinchoqlik ( $r=0,54$ ;  $p\leq 0,05$ ), o'ziga ishonch ( $r=0,49$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan, rus millatiga mansub bo'lajak psixologlarning yuqori darajadagi altruistik xulq motivlari hissiy turg'unlik ( $r=0,57$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligi asoslangan. Past darajadagi altruistik xulq motivlari o'zbek talabalarida yumshoq ko'ngillik ( $r=0,75$ ;  $p\leq 0,05$ ), frustratsiya ( $r=0,52$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan, rus talabalarida tortinchoqlik ( $r=0,63$ ;  $p\leq 0,05$ ), yumshoq ko'ngillik ( $r=0,55$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligi dalillangan. Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, muammoli vaziyatlarga kognitiv yondashish, fikr yuritish asosida o'z kechinmalarini nazorat qilish, ijtimoiy pozitiv tafakkurning ustuvorligi o'zbek talabalarida altruizmning shaxs xususiyati sifatida ustuvor bo'lishi ta'minlaydi.

Yuqorida kommunikativ sifatlar guruhini tahlil qilganimizda ham ta'kidlaganimizdek, tortinchoq shaxslarda empatiyaviy yo'nalganlikning ustun ekanligi aniqlangan. Shu nuqtai nazarda, o'zbek talabalarida mazkur ikki sifat mijozning «kognitiv dissonanslarini» yengishga yordam berishda optimal xulq strategiyalarini tanlash imkonini yaratadi. Rus millatiga mansub talabalardagi hissiy turg'unlik, ya'ni o'z emotsiyalarini boshqarish, nazorat qilish identifikatsiyalash, yuqorida emotsional intellekt mezonlarini tahlil qilganimizda ham aytib o'tgan kompleks xususiyatlar altruistik xulq motivlarini yuqori darajada namoyon bo'lishiga olib keladi.

